

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.Radjabova

Tarix fanini o'qitishda foydalaniladigan metodlar 322

D.D.J.NizomitdinovXV – XVII asr birinchi yarmida nemis tarixshunosligida Amir Temur shaxsi tavsifi va uning
harbiy yurushlari talqini 325**Қ.А.Пулатов**Борьба с полигамией, гендерным равенством и секуляристической сущностью в
социальных взглядах джадидов: научный анализ 329

ADABIYOTSHUNOSLIK

R.A.Ortiqov

Ingliz bolalar adabiyotidagi sarguzasht-fantastik asarlar poetikasiga doir 336

I.M.Jo'rayev

Zahiriddin Muhammad Bobur merosida xotin-qizlar obrazining tarixiy talqini 341

O.Z.DadajonovMaqsud Shayxzodaning "Mirzo ulug'bek" va Bertold Brextning "Galiley hayoti" dramalarida
olimlik motivi 350**S.A.Olimjonov**

Erix Mariya Remark va Ulug'bek Hamdam asarlarida badiiyat muammolari 354

A.A.Qosimov

The role of mythonyms in Tolkien's works and their linguistic analysis 360

A.A.Qosimov

Linguistic analysis of metaphors in Tolkien's novels 366

Д.Ш.Ибрагимова

Подходы преподавания зарубежной литературы в иноязычном контексте 370

M.N.Abduolimova

Lexical-structural features of mythonyms 376

N.Qurbanov

Intensification and Deintensification Expressed Through Hyperbola in English Novels 380

S.O'.Shermamatova

Teenager image in "Treasure island" by Robert Louis Stevenson 383

N.I.Tairova

XX asr adabiyotida ramziy obrazlarning poetik xususiyatlari doir 386

S.S.Usmanova

Psixologizm tarixiy asarda yetakchi obraz usuli sifatida 390

A.O'.Abdullayev

Ramz belgining maxsus turi sifatida 395

K.A.Toipvoldiyev

Реальный восток М.Ю.Лермонтова 401

А.А.Касимов, Р.Н.ДжагаспанинПроблема народного героя в литературе как отражение национального
самосознания 406**Р.Н.Джагаспанин**

Интерпретация образа Степана Разина как воплощение идеалов казачества в романе

В.М.Шукшина "Я пришел дать вам волю" 412

А.Р.Косимов

Сатира – литературный инструмент В.Шукшина (на примере романа «Любавины») 422

О.А.Акбаров

Национальная идентичность и культурная память в современной прозе 427

Э.Ф.ГиздулинИсторическое развитие постапокалиптических мотивов в
художественной литературе 431



**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZINING TARIXIY
TALQINI**

**ИСТОРИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗОВ ЖЕНЩИН В НАСЛЕДИИ
ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА**

**THE HISTORICAL INTERPRETATION OF WOMEN'S IMAGERY IN THE LEGACY OF
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR**

Jo'rayev Islombek Mamasodikovich 
Farg'onan davlat universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Maqolada Boburning ijodiy jarayonga hamda voqelikka munosabati, memuar asarida ham, lirikasida ham hayot haqiqatini xolis tasvirlashga intilgani haqida so'z boradi. Xususan, ijtimoiy hayot va maishiy turmush jarayonida xotin-qizlarning o'rni va roli, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi ishtiroti real tarixiy shaxslar misoldida ko'rsatib beriladi. Bu bejiz emas. Islomgacha bo'lgan davrlarda ham Markaziy Osiyoda xotin-qizlar huquqi birmuncha yuqori bo'lgan. Qizlar o'z xohishlari bilan turmush qurbanlar. Ular oila qurishga muvofiq deb topilgan yigitlar oldiga el-yurtni har xil balo-ofatlardan asraydigan jasur va pahlavon bo'lish shartini ham qo'yganlar. O'zlarida xalqning yuksak orzu-ideallarini mujassam etgan bunday qizlar yigiltarning tashqi ko'rinishi yoki mol-dunyosiga uchmag'anlar, aksincha mardligini sinab ko'rganlar, sevgi yo'llida chinakam qahramonlik ko'rsatishni talab qilganlar. O'z taqdirini o'zi hal qilishga intilgan bunday xotin-qizlar obrazlari, albatta, real hayotdan uzoq boilmagan.

Folklor durdonalari yozma adabiyyotga, xususan, ulug' shoh va sarkarda, shoir va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning ijodida xotin-qizlarning tarixiy shaxs sifatida jamiyatdag'i o'mini tarixiy talqin etishiga, obrazlarning keng miqyosda, har taraflama tasvirianishiga zamin hozirlagan. Bobur o'z qahramonlari shaxsi, xarakteri haqida so'z yuritayotganida ana shu omillarga asoslangan.

Аннотация

В статье рассматривается отношение Бабура к творческому процессу и действительности, его стремление объективно изобразить жизненную правду как в мемуарном произведении, так и в лирике. В частности, роль и место женщин в общественной и бытовой жизни, их участие в духовно-просветительской сфере показаны на примерах реальных исторических личностей. Это неслучайно. В доисламский период права женщин в Центральной Азии были относительно высокими. Девушки выходили замуж по собственному желанию. Они также ставили перед юношами, которые считались подходящими для создания семьи, условие быть смелыми и отважными, чтобы защищать страну от различных бедствий. Такие девушки, воплощавшие в себе высокие мечты и идеалы народа, не увлекались внешностью или богатством юношей, а, наоборот, проверяли их храбрость, требовали настоящего героизма во имя любви. Образы таких женщин, стремящихся самостоятельно решать свою судьбу, конечно, не были далеки от реальной жизни.

Фольклорные шедевры подготовили почву для письменной литературы, в частности, для исторической интерпретации роли женщин в обществе как исторических личностей в творчестве великого шаха и полководца, поэта и мыслителя Захириддина Мухаммада Бабура, а также для широкого и всестороннего изображения образов. Бабур опирался на эти факторы, говоря о личности и характере своих героеv.

Abstract

The article examines Babur's perspective on the creative process and his approach to portraying reality, highlighting his commitment to objectively depicting the truths of life in both his memoirs and poetry. It emphasizes the significant role of women in social and domestic spheres, as well as their contributions to spiritual and educational fields, using examples of real historical figures. This focus is deliberate. Even in pre-Islamic Central Asia, women enjoyed relatively higher rights. Girls chose their husbands willingly, often setting conditions for prospective suitors to demonstrate bravery and the ability to defend the nation from adversity. These young women, representing the noble aspirations and ideals of the people, prioritized courage over appearance or wealth, testing their suitors' valor and demanding genuine heroism in the name of love. Such portrayals of women who sought to shape their own destinies closely reflected real life.

The treasures of folklore laid the foundation for written literature, particularly influencing the depiction of women as historical figures in society and the expansive, nuanced portrayal of characters in the works of Zahiriddin Muhammad

Babur. As a great king, commander, poet, and thinker, Babur drew upon these cultural elements when exploring the personalities and traits of his protagonists.

Kalit so'zlar: Ijodkor shaxsi, muallif obrazi, hayot haqiqati, badiiy ijod, adabiy ta'sir, ijtimoiy vogelik, tarixiy shaxs, xolislik, estetik ta'sir.

Ключевые слова: Творческая личность, образ автора, жизненная правда, художественное творчество, литературное влияние, социальная деятельность, историческая личность, объективность, эстетическое воздействие.

Key words: The identity of the creator, the portrayal of the author, the truth of existence, creative artistry, literary impact, societal realities, historical figures, objectivity, and aesthetic impact.

KIRISH

"Boburnoma" asarining yaratilishi ijodkor shaxsi va muallif obrazi sinkretik uyg'unlashgan adabiy jarayon sifatida nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyoti tarixi miqyosida ham noyob hodisadir. Shoh va shoirning memuar asarida tasvirlangan hodisalarini uning lirik merosi bilan qiyosiy tadqiq etish jarayonida bunga yana bir bor amin bo'lamiz. Chunki har qanday vaziyatda haq so'zni aya olish, til va dil birligi tarixiy haqiqat hamda badiiy ijod uyg'unligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. "Boburnoma" muallifi bu boradagi o'z ijodiy prinsipi va tamoyillari haqida shunday deydi: "Bu bitilganlardan g'araz shikoyat emas, rost hikoyatdurdikim, bitibturmen. Bu mastur bo'lg'onlardan maqsud o'zining ta'rifi emas, bayoni voqeい bu edikim, tahrir etibturmen. Chun bu tarixta andoq iltizom qilibturkim, har so'zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqeini tahrir etilgay. Lojaram ota-og'adin har yaxshiliq va yamonlikim shoye edi, taqrir qildim va qarindosh va begonadin har ayb va hunarkim bayoni voqe edi, tahrir qildim." [1.180]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bizga ma'lumki, ibtidoiy jamoa tuzumi davrlarida ayollar jamoaning eng faol a'zosi bo'lganlar. Islomgacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyoda xotin-qizlar huquqi birmuncha yuqori bo'lgan. Qizlar o'z xohishlari bilan turmush qurbanlar. Ular oila qurishga muvofiq deb topilgan yigitlar oldiga el-yurtni har xil balo-ofatlardan asraydig'an jasur va pahlavon bo'lish shartini ham qo'yganlar. O'zlarida xalqning yuksak orzu-ideallarini mujassam etgan bunday qizlar yigtlarning tashqi ko'rinishi yoki mol-dunyosiga uchmaganlar, aksincha mardligini sinab ko'rganlar, sevgi yo'lida chinakam qahramonlik ko'rsatishni talab qilganlar. O'z taqdirini o'zi hal qilishga intilgan bunday xotin-qizlar obrazlari, albatta, real hayotdan uzoq bo'lmagan. Boburning o'zi ham bolaligida Sulton Ahmad mirzoning qizi bilan beshikkerti qilingani fikrimizning dalilidir.

"Boburnoma"da muallifning shaxsiy hayotiga oid va mavzuga aloqador bir o'rinni bor. Zahiriddin Muhammad Bobur Xurosonga – Sulton Husayn mirzo huzuriga borganida amakisi Sulton Ahmad mirzoning qizi Ma'suma Sultonbegim bilan uchrashadi. Ikki o'tada muhabbat paydo bo'lganligi, bu muhabbat keyinroq nikohga sabab bo'lganligi quyidagicha tasvirlanadi:

"Sulton Ahmad mirzoning kichik qizi Ma'suma Sultonbegimni onasi Habiba Sultonbegim bu fatarat(to'polon)lardan burunroq Xuroson olib kelgon ekandur, bir kun men okamni ko'ra kelganda onasi bilan kelib, meni ko'rdi. Ko'rgach-o'q manga xeyli mayl (muhabbat) paydo bo'ldi.

*Takalluf har necha surat tutulsa andin ortuqsen,
Seni jon derlar ammo betakalluf jordin ortuqsen.*

*Iqomat chunki qilding, Boburo, ul hur ko'yida,
Maqoming ravzadin avlo, o'zung rizvondin ortuqsen.*

Maxfiy kishilar borib okam bila, yanga bila, Poyanda Sultonbegimni yanga der edim, so'zlashib andoq muqarrar qildikim, mening keyinimcha yanga qizini olib Kobulg'a kelgay." [1.173] Boburning shu paytdagi kechinmalarini uning quyidagi baytlari zamiridagi haroratli tuyg'ulari ifodasidan ham bilish mumkin:

*Oshiq o'lg'och behudu devona bo'ldim, bilmadim
Kim pari ruxsoralar ishqig'a bu ermish havas.*

Boburning shu paytdagi holati, ko'ngil qo'yan yorini intiqlik bilan kutishi uning mana bu misralarida yorqin aksini topgan:

*Ne borurg'a quvvatim bor, ne turarg'a toqatim,
Bizni bu holatqa sen qilding giriftor, ey ko'ngil.*

ADABIYOTSHUNOSLIK

Keyinroq mirzo Bobur bilan Ma'suma Sultonbegimning to'yłari bo'lib o'tadi: "Sulton Ahmad mirzoning qizi Ma'suma Sultonbegimningkim, Xurosondin tilab, kelturib edim, ushbu kelganimda (Kobulda) aqd qildim (nikohimga oldim)." Afsuski, bu turmush uzoq davom etmaydi. Ma'sumabegim ko'zi yorigandan so'ng "zolicha" deb ataluvchi kasallikka chalinib, olamdan o'tadi. Chaqaloq – qizchaga onasining ismini qo'yadilar. [1.21]

NATIJA VA MUHOKAMA

Demak, o'rta asrlar sharoitida ham xotin-qizlarning erk va huquqlari imkon darajasida hurmat qilingan. Keltirilgan parchadan ma'lum bo'lishicha, Ma'suma Sultonbegim ham Boburga ko'ngil qo'ygan, o'z roziligin bildirgan. Keyinroq ularning nikoh to'yłari Kobulda bo'lib o'tadi, bu esa qizning roziligi bilan bo'lganligi tabiiy.

"Yodgor" dostonida kuylanishicha, Oydinoy o'z taqdirini o'zi hal qilish uchun bel bog'laydi. Insoniy g'ururini baland tutuvchi bu qiz onasidan zo'ravon sovchilarning gapini eshitgach, shunday javob beradi:

**Solarman jafolar tandagi jonga,
Aymoqning polvoni kelsa maydonga.
Men qo'rqlayman keladigan dushmanдан,
Ushlasam otarmان uni osmonga.**

Bu o'rinda Oydinoy tinglovchi – kitobxon ko'z o'ngida mustaqil fikrli, o'z huquqini himoya qila oladigan jasur qiz sifatida gavdalanadi.

Ba'zi xalq dostonlarida asar qahramonlaridan birining o'z ixtiyori bilan yor tanlashi voqeasini ham uchratish mumkin. Masalan, yigitning biror jangu jadalda yoki olishuvda mardligini kuzatgan qiz uni sevib qoladi va vafodor yor bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, xalq dostonlaridagi xotin-qizlar bilan bog'liq voqealar, hodisalar tasviri o'tmish ajdodlarimizning maishiy hayoti, orzu-armonlari va dunyoqarashlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki, ayollar qadim zamonalarda ham hayotda katta mavqega ega bo'lganlar. Andijon viloyatining hukmdori Umarshayx mirzo tasodifiy falokat tufayli olamdan o'tganda Boburning buvisi Esondavlatbegim hokimiyat tizginini qo'lda ushlab qolish uchun shoshilinch choralar ko'rganligi, elni parokandalik, amaldorlarni boshboshoqlikdan saqlab turish uchun tig'iz rejalarini ishlab chiqqanligi bizga ma'lum. Shuning uchun xalq xotin-qizlarni ajoyib pahlavonlar, vatanparvar jangchilar, adolatlari hukmonronlar sifatida tasvir etishida hayotiy zaminga suyanadi. Bunday qahramonlarni fantastik bo'yoqlar bilan mubolag'ali ravishda ifodalash bilan ilg'or g'oyalar keng targ'ib qilingan. Eng muhimi, folklor durdonalari yozma adabiyotga, xususan, ulug' shoh va sarkarda, shoir va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning ijodida xotin-qizlarning tarixiy shaxs sifatida jamiyatdagи o'mini tarixiy talqin etishiga, obrazlarning keng miqyosda, har taraflama tasvirlanishiga zamin hozirlagan. Boburshoh Hindistonni fath etish uchun otlanganda o'z mamlakatinining poytaxti Kobulga hokim etib rafiqasi Mohim beginni qoldirishi ham shoirning xotin-qizlarga ehtirom va hurmat, ishonch va xayrixohlik bilan munosabatda bo'lganligidan dalolatdir. Quyidagi ruboyi mazmunidan ham xalqonalik, xalqchillik samimiylilik baralla ko'rinish turadi:

**Yuz shukr qilayki, yona oshiq bo'Idum,
Olamga bo'lub fasona oshiq bo'Idum.
Yaxshi so'zungu vasfi jamoling eshitib,
Ko'rmay seni g'oyibona oshiq bo'Idum. [2.86]**

XULOSA

Bobur ijodda o'ziga ham, boshqalarga ham g'oyat talabchan bo'lgan. Uning temuriyzoda Sulton Mahmud mirzo she'riyati haqidagi so'zlari xarakterlidir: "Tab'i nazmi bor edi. Devon tartib qilib edi. Vale she'r'i bisyor sust va bemaza edi. Andoq she'r aytqondin aytmag'on yaxshiroqdu." [1.26] Darhaqiqat, badiiy ijod hayot haqiqatidan yiroq bo'lsa, dil dardi bilan sug'orilmasa, muallif el e'tirofiga sazovor bo'la olmaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur ana shu haqiqatni memuar asari ustida ishlayotganida ham, lirik she'rlarini yaratayotganda ham hech qachon faromush qilmagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. Toshkent, 1990.
2. Bobur Zahiriddin Muhammad. Devon. Toshkent, 1994.
3. Haqqul I. Ruboiy. Toshkent: Fan, 1976.
4. Humoyunnomma. Toshkent, 1959.
5. Mirsaydullayev M. Boburning buyuk merosi. Toshkent, 2017.